



O'ZBEKISTONDA SOVET DAVRIDA AMALGA OSHIRILGAN YOZUV ISLOHOTLARI TARIXI

Karimov Raimqul Olimjon o'g'li

Samarqand davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (Tarix) yo'nalishi

magistratura talabasi raimqulkarimov@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada O'zbekistonda sovet davrida amalga oshirilgan yozuv islohotlari tarixi, bu islohotlarga sabab bo'lgan tarixiy, siyosiy va ijtimoiy vaziyat va bu islohotlarning natijalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: yozuv islohoti, sovet davlati, XX asr, imlo, tarix, lotin yozuvi, kirill yozuvi, o'zbek tili, likbez, savodsizlikni tugatish, kommunizm, panturkizm.

Kirish

Til nafaqat aloqa vositasi balki butun millatning ma'naviy merosi hamdir. Yozuv nafaqat tilning matnda ifodalanishi hisoblanadi balki xalqning asrlar davomida shakllangan madaniyati, san'ati, ma'naviy merosining ajralmas qismidir. Yozuv - insoniyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biri, inson faoliyati bilan bog'liq axborotlarni avloddan avlodga, davrdan davrga tashuvchi vosita. Yozuv - bu tarix demakdir. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, **"Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining holis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi"**¹

Chor Rossiyasining Turkistonni istilo qilishda qatnashgan generali Mixail Skobelevning bir gapi bor edi: "Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyati, san'ati, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi adoyi tamom bo'ladi..."

¹ Karimov I.A. "Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida" -Toshkent, 1997, 127-b.



Ma'lumki, turkiy xalqlar qadimdan turli xil yozuvlardan foydalanib kelganlar. Turk-run, oromiy, so'g'd, uyg'ur, o'rxun-enasoy, arab, kirill va lotin yozuvi shular jumlasidandir. Tarixda ajdodlarimizning u yoki bu yozuvga o'tishi buyuk davlatlarning barpo etilishi, xalqlarning ko'chishi, yangi dinga e'tiqod qilishi bilan bog'liq bo'lgan. 20-asrda sobiq Sovet Ittifoqidagi xalqlar qatori o'zbeklar ham ketma-ket o'z yozuv va imlo qoidalariga o'zgartirishlar kiritishdi. O'zbekistonda 20-asrda 3 marta yozuv almashtirildi (1929, 1940, 1993), 5 marta imlo qoidalari o'zgartirildi (1923, 1929, 1935, 1956 1995), atamalarni qo'llash tamoyillari ham tez-tez o'zgarib turdi. 20-yillar boshida sof o'zbekcha so'zlarga moyillik bildirilgan bo'lsa, 30-yillardan rus tilidan so'z o'zlashtirishga zo'r berildi, 90-yillarda va hozir eski o'zbekcha, arabcha, forsha atamalardan foydalanishga urg'u berilmoqda.

Arab yozuvidan lotin yozuviga o'tish.

Arab alifbosi islohoti masalasi rasmiy ravishda hal qilinayotgan paytdanoq o'zbek ziyolilar tomonidan 20-yillarning boshlarida lotin harflariga asoslangan o'zbek alifbosini yaratish g'oyalari o'rta tashlanadi. "Chig'atoy gurungi"da hatto o'sha paytdanoq "O'lkada lotin harflarini qabul etmakni yoqlovchilar bisyor edi". Chig'atoy gurungi" asosan "keksa" va "yosh" jadidlardan iborat tashkilot bo'lib, u Fitratning tan olishicha, "o'zbek millatchiligi" g'oyasini tashigan ijodkorlar yig'ini edi hamda o'z majlislarida o'zbek tili va madaniyatini yuksaltirish yo'llarini izlar va muhokama etar edi.² Buning ilk ko'rinishi sifatida, 1921-yilgi "Til va imlo qurultoyi" va 1922-yilda bo'lgan O'zbek maorifi va madaniyat xodimlarining o'lka qurultoyida Mahmud Xodiyev va Said Alixo'jayevlar arab alifbosini tashlab, lotin alifbosiga o'tishni taklif qilgan edilar.

Lotin yozuviga o'tish harakati 1926-yilda Ozarbayjonning Boku shahrida o'tkazilgan I Butunittifoq turkologiya qurultoyida keng muhokama qilingan³. Qurultoyda O'zbekiston SSRdan Fitrat, Nazir To'raqulov kabi ziyolilar qatnashgan. Ular arab yozuvi o'zbek tilining fonetik xususiyatlarini (ayniqsa unli tovushlarni) to'liq ifodalay olmasligini ta'kidlashgan.

² Fitrat. O'rtoq Boybo'latovga ochiq xat // Tanlangan asarlar, I, Toshkent, 2000, 174-b.

³ Qarang: Мировая революция ><http://www.xserver.ru/user/mirrv/> (October, 2006)



Ayrim tadqiqotlarda 20-yillar oxiridagi yozuv o'zgarishi to'g'risida gap ketganda, arab alifbosidan lotin alifbosiga o'tilishiga juda salbiy munosabat bildirilgan. Ularda bu tadbir rasmiy tashkilotlarning qat'iy ko'rsatmasi, tazyiqi ostida kechganligi aytiladi. Nihoyat bir qancha urinishlardan so'ng 1929-yilning 15-23 may kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan Respublika til-imlo konferensiyasida lotin yozuviga asoslangan 33 harfdan iborat yangi o'zbek alifbosi qabul qilinadi.⁴ Eng muhimi, o'sha paytda o'zbek tilidagi singarmonizm (unlilar uyg'unligi) qoidasiga qat'iy amal qilingan va 9 ta unli uchun alohida harflar joriy etilgan.

Lekin 1929-yildagi 9 unli tizimi amaliyotda qiyinchiliklar tug'dirdi. 1934-yilda Toshkentda o'tkazilgan til qurultoyida unli harflar soni 6 taga tushirildi. Natijada bugungi kunda biz biladigan a, o, i, u, e, o' tizimiga yaqinlashildi. Biroq bu o'zgarish ba'zi shevalar (masalan, qipchoq shevalari) xususiyatlarini yozuvda yo'qolishiga sabab bo'lgan deb tanqid qilinadi.

Ushbu davrda xalq orasida savodsizlikni tugatish (likbez – ликвидация безграмотности) harakati avj oldi. Ishchilar, dehqonlar va boshqa mehnatkashlar uchun kechki maktablar, o'quv kurslari ochildi. Qisqa vaqt ichida aholining savodxonlik darajasi bir necha barobar oshdi. Maktablar, texnikumlar va oliygohlar yangi alifboga to'liq moslashdi. 1930-yillarda Oybekning "Qutlug' qon", Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Obid ketmon", Cho'lponning "Kecha va kunduz" kabi durdonalari aynan shu lotin yozuvida chop etilgan. "Qizil O'zbekiston" (hozirgi "O'zbekiston ovozi"), "Mushtum" jurnali 1929-yildan 1940-yilgacha to'liq lotin yozuvida chop etilgan.

Lotin yozuvidan kirill yozuviga o'tish.

1930-yillarning oxiriga kelib, SSSR siyosatida "pan-turkizm" (turkiy xalqlarning birlashuvi) xavfi haqida qo'rquv paydo bo'ldi, "milliy respublikalarni rus markaziga yanada yaqinlashtirish" siyosati ustuvorlik qildi. Sovet Ittifoqi barcha xalqlarni yagona rus madaniy va lingvistik maydoniga birlashtirishni maqsad qildi. Kirill yozuviga o'tish rus tilini o'rganishni osonlashtiradi, deb hisoblandi. Lotin

⁴ Азимова Д. Культурная революция в Узбекистане. –Ташкент, 1978 (bibliografiya mavjud)



yozuvi Turkiyadagi yozuvga o'xshash bo'lgani uchun, Markaziy Osiyo xalqlarini Turkiyadan uzoqlashtirish va rus tili (kirill)ga yaqinlashtirish maqsadi ko'zlangan.

1940-yil 8-mayda lotin yozuvidan voz kechilib, kirill alifbosiga o'tish haqida qonun qabul qilindi⁵. Lotin yozuviga o'tish uchun yillab tayyorgarlik ko'rilgan bo'lsa, kirillga o'tish juda qisqa muddatda amalga oshirildi. 1929-1940-yillar oralig'ida lotin yozuvida savod chiqargan butun bir avlod 1940-yilda yana "savodsiz"ga aylandi va yangi alifboni o'rganishga majbur bo'ldi. O'zbek xalqi o'zining 1929-yilgacha bo'lgan ming yillik arab yozuvidagi tarixidan va 1929–1940-yillar oralig'idagi lotincha asarlaridan deyarli uzilib qoldi. Kirill alifbosi imlo qoidalariga rus tili qoidalarini (masalan, II, III, Ё, Ъ harflari) sun'iy ravishda tiqishtirildi. Kirill alifbosiga asoslangan o'zbek alifbosining o'zbek tili tovush tizimiga mos bo'lmaganligini ushbu alifbo qabul qilingach (1940), o'zbek tilining imlo qoidalarini oradan 16 yil o'tgandan so'ng, ya'ni 1956-yildagina tasdiqlanganidan ham bilish mumkin. Chunki nomukammal, tilning milliy xususiyati asoslariga qurilmagan alifbo imlo qoidalarining tez va to'g'ri ishlab chiqilishiga to'sqinlik qildi. Alifbodagi kamchiliklar imlo, alifbosiga o'tish arafasida tilshunos olimlar, mutaxassislar, ona tili o'qituvchilari, ziyolilar, keng jamoatchilik tomonidan kirill-o'zbek alifbosidagi kamchilik sifatida ko'rsatilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirib, quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- unli harflar sonining unli tovushlar sonidan kam ekanligi, ya'ni tildagi barcha unli fonemalar uchun harflar olinmaganligi;

- qator unli harflar o'zbek so'zlarida bir xil, rus tilidan olingan so'zlarda boshqa xil tovushlarni bildirishi;

- bir qancha tovush uchun harflar tayin etilmaganligi;

- o'zbek tiliga xos bo'lmagan tovushlar uchun harf va belgilar kiritilganligi.

Bu kabi kamchiliklar bois alifbo va imlo birligi, imlo va talaffuz munosabati kabi

⁵ Дятленко П.И. Языковые реформы в Центральной Азии: тренды цели итоги > <http://cyberleninka.ru/article/n/yazykovye-reformy-v-tsentralnoy-azii-trendy-tseli-itogi> (March, 2017)



muhim masalalar to'g'ri hal qilinmadi, imloda istisnolar, qo'shimcha qoidalar ko'paydi, o'qish-o'qitish ma'lum ma'noda qiyinlashdi.

Bu davrni faqatgina harflar almashinuvi emas, balki ulkan siyosiy va madaniy o'zgarishlar jarayoni sifatida tushunish lozim. O'zbek tilidagi eng yirik ensiklopediyalar, lug'atlar (5 tomlik "O'zbek tilining izohli lug'ati") va ilmiy asarlar aynan kirillda yozildi. Dunyo adabiyoti durdonalari (Shekspir, Tolstoy, Balzak) o'zbek tiliga ommaviy ravishda tarjima qilindi.

Xulosa.

Sho'rolar davrida arab yozuvidan lotin yozuviga, so'ngra kirill yozuviga o'tish sof siyosiy sabablarga ko'ra amalga oshirildi hamda madaniyat va umuman mahalliy sivilizatsiyaning eng qiymatli yutuqlari bitilgan yozuvlar xalqning istak va xohishlariga zid ravishda goh "sotsializm qurilishini tezlashtirish", goh "kommunizm qurilishi talablariga ko'ra" almashtirilaverdi. Eng yomoni har gal yozuv almashganida eski yozuv(lar) qonundan tashqari deb e'lon qilindi va bu yozuvdan foydalanish jiddiy cheklanib qo'yildi⁶.

Mustaqillik yillarida joriy etilgan yangi o'zbek alifbosi mamlakat va xalqning globalizatsiya jarayonlari avj olgan davrdagi ehtiyojlarini qondirish maqsadida qabul qilindi.

Yozuv va imlo islohotlari qandaydir mafkura yoki siyosiy kuchlarning maqsadlariga emas, xalq va jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi lozim, o'shandagina bunday islohotlarni ma'qullash va ijobiy baholash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Karimov I.A. "Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida" -Toshkent, 1997, 127-b
- 2.Eltazarov J. D. "O'zbekistonda 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiolingvistik tahlil)" - Samarqand, 2017
- 3.Q.Usmonov, va M.Sodiqov. O'zbekiston tarixi" (1917-1991- yillar).
4. Turkistonda 1917-yil ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, Ziyonet.uz sayti
5. Азимова Д. Культурная революция в Узбекистане. –Ташкент, 1978

⁶ Eltazarov J. D. - O'zbekistonda 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiolingvistik tahlil) - Samarqand 2017



6. Fitrat. O'rtoq Boybo'latovga ochiq xat // Tanlangan asarlar, I, Toshkent, 2000
7. Дятленко П.И. Языковые реформы в Центральной Азии.